

## ZAMONAVIY TA'LIMDA MUAMMOLI O'QITISH

F.A.Turakulova

Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

E-mail: [t.a.feruzaxon@gmail.com](mailto:t.a.feruzaxon@gmail.com)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada zamonaviy ta'linda muammoli o'qitishning mazmuni va afzalliklari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Muammoli ta’lim”, “Muammoli o‘rganish”, “Muammoli o‘qitish”, “Muammoli ta’lim texnologiyasi”

**Аннотация:** в данной статье изложено содержании и преимуществах проблемного обучения в современном образовании.

**Ключевые слова:** «Проблемное обучение», «Проблемное обучение», «Проблемное обучение», «Технология проблемного обучения».

**Abstract:** this article outlines the content and advantages of problem-based learning in modern education.

**Key words:** "Problem learning", "Problem learning", "Problem learning", "Problem learning technology".

Bugungi kunning zamonaviy ta'lida muammoli o\_qitish, ta'lim berishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, zamonaviy bilimlar bilan qorollantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish maqsadi belgilanadi. Zamonaviy ta'linda “Muammoli ta’lim”, “Muammoli o‘rganish”, “Muammoli o‘qitish”, “Muammoli ta’lim texnologiyasi”, “Muammoli metodlar”, “Muammoli vaziyat” kabi bir qator tayanch tushunchalar mavjuddirki, ular mazmun jixatidan bir-biridan farq qiladi. Nazariy ma'lumotlar asosida ularni quyidagicha ta'reflash mumkin:

Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, bu jarayonda ta'lim oluvchilar belgilangan mavzu ustida muammoli vaziyatlar tizimi asosida o'rganiladi.

Muammoli o'rganish – ta'lim oluvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ifodalash hamda ularni yechish faoliyat usullarini – taxminlarni ortaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali o'zlashtirishi bo'yicha ijodiy o'quv faoliyatini maxsus tuzilishidir.

Muammoli o'qitish deganda ta'lim beruvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni qo'yish va ularni yechish bo'yicha talabalarni faol mustaqil faoliyatini ko'zda tutadigan va natijada ijodiy ravishda kasbiy (ëki predmet) bilim, ko'nikma va malaka (BKM)lari ijodiy egallangan hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tushuniladi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - insonning fikrashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoli metodlar – ta'lim oluvchilarning fandan muammoli vaziyatlar yaratishga, talabalarining maxsus fanlardan bilimlarini faollashtirishni talab etadigan, murakkab masalalarni izlash va yechishga, tahlilga, alohida faktlar ortida hodisa va qonunlarni ko'ra olishlariga asoslangan metodlardir.

Muammoli vaziyat – muayyan qiyinchilik sabab yuzaga kelgan holat bo'lib, uni bartaraf etish yo'li topilishi kerak. Vazifa engil hal etiladigan yoki aksincha hal etilishi mumkin bo'lmagan paytda muammoli vaziyat vujudga kelmaydi.

Zamonaviy ta'limda "Muammoli ta'lim", "Muammoli o'rganish", "Muammoli o'qitish", "Muammoli ta'lim texnologiyasi" kabi tayanch tushunchalarning barchasi ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan bo'lib, ularni bilimlarni yaxshiroq tushunish va saqlashga va faol o'rganishga imkon beradi Shuningdek, bu ko'plab sohalarda qo'llaniladigan hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, muammoni hal qilish, tanqidiy fikrash, hamkorlik va o'z-o'zini boshqarish

qobiliyatlari va real hayot tajribalaridan foydalangan holda optimal ishlash, jamoani jalg qilish orqali guruh intellekti, turli xil qarashlar muammoni hal qilishda turli xil idrok va yechimlarni taklif qilish tajribalari ham ortadi.

Zero, muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli babs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning~B©yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish joiz:

- Muammoli ta'limda ta'lim oluvchilar faol qatnashadilar va bu usul ularda jo'shqinlikni tarbiyalaydi;
- Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarni faol o'rganishga, shuningdek, umr bo'yil o'qish qobiliyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga yordam beradi
- Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning muammolarga duch kelish orqali o'z-o'zini boshqarishni o'rganishni rag'batlantiradi va chuqur o'rganish rivojlanishini rag'batlantiradi;
- Muammoli ta'lim hayot davomida bilimlarni o'rganib borishni qo'llab-quvvatlaydi;
- Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarda o'z maqsadlarini aniqlash, o'rganish uchun tegishli manbalarni topish va bilishlari kerak bo'lган narsalar uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olish imkoniyatlarini rivojlantirish orqali umrbod o'qishga undaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации мышлении и обучении-Москва “Директ-медиа” 2014.
2. Z.K.Ismoilova, R.S.Musayev, A.A.Shoyusupova. O‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent-2008.

